

TABIY GEOGRAFIK JARAYONLARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR XUSUSIDA

Usmanova R. - Qarshi davlat universiteti dotsenti.
Saydullayeva R.N.- Qarshi davlat universiteti talabasi
O'zbekiston.

Annotatsiya. Maqolada tabiiy geografik jarayonlarni o'rganilishi, bu jarayonlarni tasnifi va shakllantiruvchi omillarning turlari, hamda o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Tabiiy geografik jarayonlarni yuzaga kelishida asosiy o'ringa ega bo'lgan jihatlari va bularni qishloq xo'jaligini rivojlantirishda hududlarda shakllanadigan jarayonlarining sabab va oqibatlarini haqida bayon etilgan.

Tayanch so'zlar. Endogen, ekzogen, karst, suffoziya, surilma, karst, nurash, glyatsial, eol.

НА ФОНЕ ФАКТОРОВ, ФОРМИРУЮЩИХ ПРИРОДНЫЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ

Усманова Р. – доцент Каршинского государственного университета.
Сайдуллаева Р.Н. - студент Каршинского государственного университета
Узбекистан.

Аннотация. Статья посвящена изучению естественных географических процессов, раскрыта классификация этих процессов и виды формообразующих факторов, а также их специфика. Описаны аспекты естественных географических процессов, имеющих первостепенное значение в их возникновении, а также причины и последствия их процессов, которые формируются в регионах при развитии сельского хозяйства.

Ключевые слова. Эндогенный, экзогенный, карстовый, суффозионный, скольжение, карстовый, выветривание, гляциальный, эоловый.

AGAINST THE BACKGROUND OF FACTORS SHAPING NATURAL GEOGRAPHICAL PROCESSES

Usmanova R. - Associate Professor of Karshi State University.
Saydullayeva R.N. - student of Karshi State University
Uzbekistan.

Абстракт. The article is devoted to the study of natural geographical processes, discloses the classification of these processes and the types of formative factors, as well as their specifics. The aspects of natural geographical processes that are of primary importance in their occurrence, as well as the causes and consequences of their processes, which are formed in the regions during the development of agriculture, are described.

Keywords. Endogenous, exogenous, karst, suffusion, sliding, karst, weathering, glacial, aeolian.

Kirish. Tabiiy geografik jarayonlar - tabiatdagi modda va energiya o'zgarishlari, shakl o'zgarishlari, hamda rivojlanishiga sabab bo'luvchi barcha turdagi hodisalardir. Endogen va ekzogen kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalarning aksariyat qismi tabiiy geografik jarayonlar tarzida yuz beradi. Tabiiy geografik jarayonlar shakllanishi, miqyosi va tashqi tuzilishi jihatidan turlicha (zilzila, vulqon otilishi, karst, suffoziya, surilma, eroziya, jarlanish, botqoqlanish, muzliklarning harakati tufayli yuzaga keladigan jarayonlar,

sho`rlanish va b.)dir. Tabiiy geografik jarayonlar turlarining tabiatdagi tutgan o`rni ham bir - birlaridan farqlanadi.

Tabiiy geografik jarayonlar aholi hayotining xavfsizligi turli ijtimoiy muammolar, dehqonchilik, chorvachilik, o`rmonchilik, qurilish ishlari kabi masalalarda o`z aksini topadi. Tog` jinslarining emirilishi va yer po`stining tuzilishi yerning ichki qismi o`zgarishida ham aks etishi sir emas. Natijada yer po`stining yotish holati yer yuzasi relyef shakllanishi va ular bilan bog`liq ravishda turli muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Har bir mamlakat itisodiyotini rivojida aholini iste`mol mahsulotlari bilan ta`minlash va yashash sharoitini yaxshilash maqsadida sanoat, qishloq xo`jaligi, o`rmonchilik, uy-joy qurilish ishlari kabilarni oqilona joylashtirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tarmoqlar takomillashtirishda har bir davlatning ishlab chiqarishi tabiiy sharoitga bog`liq bo`lganligidan, ayniqsa tabiiy geografik jarayonlarni keltirib chiqaruvchi omillarini o`rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Asosiy qism. Mamlakatimizda tabiiy geografik jarayonlarni o`rganish tarixida uzoq davrlarga borib taqaladi. Geograflar, tarixchilar, tabiatshunoslar, sayyohlar hamda mahalliy aholi tomonidan bitilgan qo`lyozmalarda tabiiy resurslardan foydalanish haqida bayon etilgan. Bu qo`lyozmalarning ba`zilarida o`z zamonalarida yuz bergan kuchli zilzilalar, vulqon otilishi, sel kelishi, bo`ronlar, qum bo`ronlari, ko`chkilar haqida ma`lumotlar uchratish mumkin. Ko`pincha ular bu tabiiy geografik jarayonlarning talofatlari xususida yozib qoldirganlar. Masalan, Buxoro shahrida 942 yilda bo`lib o`tgan 7 ballik zilzila haqida tarixchi olimlar tomonidan yozib qoldirilgan. Abu Rayxon Beruniyning *“Alosor al boqiya an alqurun alholiya“* (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarida ona shahri Kotni 993 yili degish yuvib ketganligi xususida yozib qoldirgan. Bundan tashqari Narshaxiy (X asr), Yoqut Xamaviy (XII asr), Zahiriddin Muhammad Bobur (XVI)larning asarlarida ham tabiiy geografik jarayonlar xususidagi ma`lumotlarni ayrim masalalarni bayon etish mobaynida keltirib o`tganlar.

1972 yildan R.A.Niyozov boshchiligida surilmalar “Yonbag`irlar va qiyaliklar turg`unligi” laboratoriyasida, A.P.Pushkorenko boshchiligida sel jarayonlari va suv omborlar qirg`og`ining abraziya tufayli qayta shakllanish muammolarini “Quyuyq oqim 'choqlari” laboratoriyasida, prof. M.M.Mamatqulov boshchiligida “Karst va speleologiya” laboratoriyasida tadqiqotlar olib borilgan. M.M.Mamatqulov boshchiligidagi laboratoriyada K.Aripov va A.Nizomovlar tomonidan suffoziya jarayonlari o`rganildi. Keyingi davrlarda A.Rafiqov, X.Vaxobov, M.SH.Shermatov, A.N.Nig'matov kabi olimlar tomonidan tektonik gravitatsion, gayatsial, suffoziya, eroziya, akkumlyatsiya, eol kelib chiqishga ega bo`lgan tabiiy geografik jarayonlar yetarli ma`lumotlar asosida tadqiq etildi.

Tabiiy geografik jarayonlar deb, geografik qobiqda yoki uning ayrim qismlarida ro`y berib, unda miqdor hamda sifat o`zgarishlarga olib keluvch jarayonlarga aytiladi. Tabiiy geografik jarayonlar tabiatda modda va energiya o`zgarishlarini belgilab beruvchi hamda mayyan hudud landshaftlarining rivojlanishiga sabab bo`luvchi barcha hodisalar hisoblanadi. Bularni landshaftlar komponentlarining o`zaro ta`siri va komponentlararo aloqalarda ro`y beruvchi jarayonlardan iboratdir. Aynan shu jarayonlarni keltirib chiqaruvchi omillarning muayyan nisbatida (atmosfera tsirkulyatsiyasi, namlikning aylanishi, releif hosil bo`lishi, nurash, tuproq hosil bo`lishi, o`simlik va hayvonot dunyosining mavsumiy hamda asriy o`zgarishlari) ro`y beradi.

Tabiiy geografik jarayonlar tabiiy va sun`iy omillar ta`sirida shakllanadi va rivojlanib boradi. Tabiiy omillar esa ikki katta guruhga bo`linadi: Yer po`stida va yuza qismidagi barcha o`zgarishlarga sababchi bo`lgan ikkita: endogen va ekzogen kuchlar yoki jarayonlar bor. Endogen Yerning ichki energiyasi ta`sirida harakatga keltiruvchi kuch bo`lsa, Quyosh energiyasi ta`sirida esa yerning yuza qismidagi barcha o`zgarishlarni sababchisidir. Binobarin, endogen kuchlar bunyod etuvchi bo`lsa, ekzogen kuchlar esa barbod etuvchi xususiyatga ega.

Sun`iy omillar antropogen yoki texnogen omillardir. Antropogen omillarga insonning turli xil xo`jalik faoliyati kiritiladi. Inson tomonidan ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarini tashkil etish maqsadida tabiatga bilvosita va bevosita ta`sir

ko`rsatuvchi barcha faoliyatlar kiradi. Jumladan, shahar qurilishi, metallurgiya, tog`-kon sanoati, qishloq xo`jaligi, suv xo`jaligi, transport va boshqalar.

Tabiiy geografik jarayonlarni tadqiq etish landshaftlarni dinamik tuzilma sifatida o`rganishga, ularni muhofaza qilish va o`zgartirishning oqilona yo`llarini tanlashga imkon beradi. Geografik majmualararo hamda komponentlararo modda va energiya almashinuvini aniqlash ayniqsa katta nazariy ahamiyatga ega. Tabiiy geografik jarayonlar davriy va tartib asosida ketma ketlik bilan muntazam takrorlanib turadi. Masalan, fasllar (havo harorati, namligi, shamollar, yorug`lik) davomida almashinib turishi qonuniydir. Shu davriylikka mos ravishda tog` jinslarining yemirilishi, suv toshqinlari, sel, surilma va boshqalar ham muayyan tartibda takrorlanib turishi bejiz emas.

Hozirgi vaqtda inson yashab, to`xtovsiz munosabatda bo`lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5-4.7 mlrd. yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta`sirida, ya`ni Quyosh nuri, Yerning massasi, gravitatsiya kuchi, ko`lami, aylanma harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o`zgarishi, ekzogen jarayonlar ta`siri, organik dunyoning paydo bo`lishi va taraqqiyoti ta`sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o`zaro ta`sir etib turuvchi ko`p omillarning murakkab majmuyida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog`liq [4; 169- 171 b.].

Tabiiy geografik jarayonlarni ilmiy tadqiq etishda tasniflash variantlari ham yuzaga kela boshladi. Jumladan, tabiiy geografik jarayonlarning ayrimlarini E.Q.Qodirov va boshqalar xavfli jarayonlar turkumiga kiritadi va uchta yirik guruhga ajratadi [2;112 b.]. Bundan tashqari M.M.Mamatqulov tomonidan ham tabiiy geografik jarayonlar O`zbekiston hududida uchraydiganlarini misol tariqasida tasniflangan. Natijada ushbu jarayonlarning etti turkumdan iborat guruhini shakllantirdi [1; 91 b.].

Tabiiy geografik jarayonlarning eng mukammal tasnifini prof.A.A.Rafiqov va H.Vaxobov tomonidan amalga oshirilgan bo`lib, bu yerda muallif tabiiy geografik jarayonlarni ikki yirik guruhga ajratadi [3; 160 b.]. Birinchi guruh tabiiy omillar ta`sirida sodir bo`ladigan jarayonlar va ikkinchi guruh sun`iy omillar

ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlardir. Birinchi guruh (yerning ichki (endogen) kuchlari ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlar)ni ham ikki guruhga ajratiladi. Shbu guruhga vulkanlar, zilzila, tog'larning ko'tarilishi, yer yuzasining cho'kishi kabi jarayonlar kiritilgan. Ikkinchi guruhga esa nurash, eroziya, surilmalar, muz va shamolning ishi kiritilgan.

Sun'iy omillar ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlarga esa sho'rlanish, ikkilamchi sho'rlanish, botqoqlanish, cho'llanish, agroeroziya, suv omborlar qirg'og'ining abraziyaga uchrashi va sun'iy eroziya kiritilgan (1-jadval).

1-jadval.

Tabiiy geografik jarayonlar tasnifi

(E.Q.Qodirov va b., M.M.Mamatqulov(2008), A.A.Rafiqov va b. (2010)bo'yicha)

	Mualliflar	
1.	E.Q.Qodirov va boshqalar	1.Yerning ichki kuchlariga bog'liq jarayonlar (tektonik harakatlar)
		2.Yerning tashqi kuchlariga bog'liq jarayonlar (tog` jinslari qatlamlaridagi surilmalar, sel hodisasini)
		3.Inson faoliyati bilan bog'liq jarayonlar
	M.M.Mamatqulov	1.Denudatsion kuchlar bilan bog'liq jarayonlar
		2.Gravitatsion kuchlar bilan bog'liq jarayonlar
		3.Yer usti oqar suvlari faoliyati bilan bog'liq tabiiy geografik jarayonlar
		4. Yer usti va yer osti suvlari, suvlari faoliyati bilan bog'liq jarayonlar
		5.Shamollar faoliyati bilan bog'liq jarayonlar
		6.Dengiz, ko'l, suv omborlari to'lqinlari bilan bog'liq tabiiy geografik jarayonlar
		7. Insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq jarayonlar
3.	A.A.Rafiqov va b.	1.Tektonik xarakatlar tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar
		2. Zilzilalar tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar
		3. Vulqonlar otilishi tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar
		4. Iqlim omillari ta'sirida yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar
		5.Gidrologik va gidrogeologik oqim tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar
		6.Gravitatsion kuch etakchiligida yuzaga keladigan tabiiy geografik jarayonlar
		7.Muzliklar ta'sirida yuzaga keladigan tabiiy geografik jarayonlar
		8.Antropogan ta'sir tufayli yuzaga keladigan tabiiy geografik jarayonlar

*Ma'lumotlar asosida R.Usmanova (2025) tomonidan tayyorlandi.

A.A. Rafiqov va boshqalar tomonidan tavsiya qilingan tasnifni A.Nizomov tomonidan tahlil qilingan va to'ldirishga harakat qilingan. Hozirgi zamonaviy

texnologiyalar davrida ekologik muvozanatning buzilishi oqibatida tabiatga jiddiy zarar yekazilmoqda. Buning oqibatida landshaftlarning mahsuldorligi ham yildan–yilga pasayib bormoqda. Ayniqsa arid iqlimli hududlar landshaftlarining degradasiyasi tobora rivojlanib bormoqda. Bularning barchasi esa tabiat komponentlarida qashshoqlanishga va choʻllanish jarayonining rivojlanishiga olib keladi. Bunday jarayonlar ayniqsa, quruq iqlimli Qarshi choʻlida yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Tabiiy omillar bevosita iqlimiy xususiyatlarga bogʻliq bogʻliqligidan Qarshi choʻlida issiq quruq va atmosfera yogʻinlarining kamligi sababli sodir namoyon boʻlmoqda. Bunda yer osti suvlari sathining pasayishi, Qarshi choʻli atmosfera yogʻinlari miqdorining kamayishi va bugʻlanishning ortishi, yoz va qishda haroratlar amplitudasining kattalashishi, tuproq shoʻrlanishining ortishi, davomli qurgʻoqchil iqlimning ketma-ket kelishi tufayli tuproqning yuqori qatlamida namlik zahirasi kamayishi va boshqalar kuzatiladi [6; 98-101 b.].

Bundan tashqari dehqonchilikda ekin maydonlaridan notoʻgʻri foydalanish tufayli agroeroziya kabi suv va shamol taʼsirida inson omilining aralashuvi tufayli yuzaga keladi. Tabiiy jarayonlar natijasida oʻsimliklarning nobud boʻlishi, ularning ayrim turlarining yoʻqolishi va natijada yaylov mahsuldorligining kamayishi kuzatiladi. Qarshi choʻlida sugʻorilib dehqonchilik qilinadigan yerlarida qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga tabiiy geografik jarayonlardan suv eroziyasi, shamol eroziyasi, gravitatsion jarayonlar, sel hodisalari, loyqa bosishi, botqoqlanish, shoʻr bosish, qatqaloq hosil boʻlishi hodisalari eng koʻp salbiy taʼsir koʻrsatadi [5; 6; 98-101 b.].

Xulosa. Tabiatdan foydalanishda, yaʼni yangi yerlarni oʻzlashtirishda, ishlab chiqarish obyektlarini qurishda, qurgʻoqchil yerlarni sugʻorishda va boshqalarda tabiiy omillar nisbati ular oʻrtasidagi muvozanat buzilishini oldini olish zarur boʻladi. Shuning uchun tabiatga har qanday taʼsir koʻrsatishdan oldin tabiiy geografik jarayonlarning oʻziga xos xususiyatlarini va shakllantiruvchi barcha omillarni tadqiq qilish zarur. Ayniqsa tabiat muvozanatiga taʼsir koʻrsatuvchi

jarayonlarni va ushbu ta'sirlardan keyingi o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini hisobga olmoq kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Маматқулов М. Ўрта Осиё геоморфологияси. // Ўқув қўлланмаТ.: “Университет” 2008. 91 б.
2. Низомов А. ва бошқ. Табиий географик жараёнлар. О‘қув қо‘лланма. –Т.: Fan va texnologiya, 2015. – 112 б.
3. Rafiqov A. A. va boshqalar. Amaliy geografiya. //Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. — To‘rtinchi nashr. — T. “Sharq” 2010. — 160 b.
4. Соатов Б.Б., Хамидова С.А., Одилов Д.Б. Ўзбекистонда кушларни муҳофаза қилишнинг амалий йўллари. //География ва география таълимидаги муаммолар. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах 2018. 169- 171 б.
5. Усманова Р., Хушмуродов Ф.М. Қашқадарё водийси агроландшафтларида чўлланиш жараёни ривожланишининг географик жиҳатлари //Янгиланаётган Ўзбекистонда география: фан, таълим ва инновация// Республика миқёсидаги илмий – амалий конференцияси материаллари. Т.:ТДПУ2021 й. 98-101 б.
6. Usmanova R. Sattorov Q. Iqlim o'zgarishi va inson faoliyati ta'sirida eroziya jarayonlarining rivojlanishi //“Экономика и социум” №2(129) 2025. www.iupr.ru